

Uychi tuman hududining geografik tuzulishini grafik arganayzer texnologiyasi orqali yoritish

Durdonova Mahmudullo qizi Nishonova
durdonanishonova1993@gmail.com

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Bugungi ta’lim tizimida olib boriladigan siyosiy jarayonalar va o’zgarishlar yoshlar ongiga judda kuchli tasir etmoqda. Yoshlarni Vatanga bo’lgan muhabbatini oshirish ularni turli yot g’oyalardan himoya qilish uchun o’zlari yashab turgan hududning tarixini va geografik-iqtisodiy tuzulmasi haqida qisqacha tanishtirishimiz va malumotlarni ular tushuna oladigan sodda va aniq yetkkaza olishimiz lozim.

Kalit so’zlar: siyosiy jarayon, yoshlar, iqtisodiy tuzulma, geografik joylashuv, arganayzer, agrasanoat, geomorfologik, vodiy, mintaqa, tog’li hudud, relief

Illumination of the geographical structure of uyuchi district area through graphic organiser technology


Durdonova Mahmudullo kizi Nishonova
durdonanishonova1993@gmail.com
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract: Political processes and changes carried out in today's education system have a strong impact on the minds of young people. In order to increase young people's love for the Motherland and protect them from various foreign ideas, we should briefly introduce them to the history and geographical and economic structure of the area they live in, and be able to convey information in a simple and clear way that they can understand.

Keywords: political process, youth, economic structure, geographical location, organizer, agro-industry, geomorphological, valley, region, mountainous area, relief

Bugungi ta’lim tizimida olib boriladigan siyosiy jarayonalar va o’zgarishlar yoshlar ongiga judda kuchli tasir etmoqda. Yoshlarni Vatanga bo’lgan muhabbatini oshirish ularni turli yot g’oyalardan himoya qilish uchun o’zlari yashab turgan hududning tarixini va geografik-iqtisodiy tuzulmasi haqida qisqacha tanishtirishimiz va malumotlarni ular tushuna oladigan sodda va aniq yetkkaza olishimiz lozim. Shu kabi asalalrni birgina Uychi tumani misolida tavsiflab ko’rsak. Uychi tuman


hududining geografik tuzulishini grafik arganayzer orqali yoritib, texnologiya orqali biz o'rganilayotgan tumanning xar bir nuqtasini va tizimini o'rganamiz va o'quvchilarga malumotlarni ular o'rganishni xoxlagan tarzda yetkazib beramiz.



Hududning tuzulishi Janubiy-g'arbda Chortoqsoy oqib o'tadi, shuningdek uning hududi orqali Namangan - Andijon, Namangan - Farg'ona - Qo'qon hamda Qirg'iziston Respublikasining Beshkek, Jalolobod, O'sh va boshqa qator shaharlarni bog'lovchi avtomobil yo'llari o'tadi. Farg'ona temir yo'l doirasining Andijon-Namangan yo'llarining 13,5 kilometri ham Uychi orqali o'tadi. 1994-yilning ohrida Andijon-Namangan temir yo'lining Qizilrovot qishlog'ida "Uichi" temir yo'l bekatini ishga tushirilishi tumanning geografik o'rmini yanada qulaylashtirdi. Bulardan tashqari tuman hududining 90% nisbatan tekis yuzada joylashgan bo'lib, bu esa agrosanoat majmui tarmoqlarini tashkil etishda, ayniqsa dehqonchilikni rivojlantirishda ancha qulay omil bo'lib hisoblanadi.

Uichi tumani hududi Farg'ona berk kotlovinasining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, uning yer ustini taraqqiyoti vodiyning geologik rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Ma'lumki, Farg'ona vodiysining geomorfologik qiyofasini yer usti tuzilishining shakllanishida mezo-kaynazoy eralaridagi sodir bo'lgan kuchli tog' hosil bo'lish jarayoni (Alp tog' burmalanish jarayoni bosqichi) muhim rol o'ynaydi. Bu eralardagi Alp tog' paydo bo'lish bosqichi vodiyning shimolidagi, ayniqsa sharq va janubbdagi tog'lar kuchli ko'tariladi. Natijada ko'p davrlar suv bilan band bo'lgan va ulkan dengizning qo'ltig'ini hosil qilgan. Keyinchalik Farg'ona vodiysidan suv chekina boshlaydi. Suv chekinishi vodiyning sharqidan g'arbiga tomon bo'lib, bu jarayon mezazoy erasining dastlabki uchlamchi va ikkilamchi davrlariga keliboq Farg'ona vodiysi suvdan deyarli holi bo'ladi.

Vodiyning atrofidagi baland tog'lardan boshlanuvchi soy va daryolar o'z suvlarini Farg'onaning markazida to'plab, ulkan saykunli Sirdaryoni hosil qiladi. Bu ko'p sonli sersuv sho'x soy va daryolar kuchli yemirilishni (eroziya ishlarini) bajarib, atrofdagi tog'lardan katta qatlamdagi turli yotqiziqlarni (allyuval prolyuvial va delyuvial) olib kelib vodiyning atrofdagi tog' oldiadir mintaqalari va uning markaziga yotqizgan.



Xususan, Uychi tumani hududining janubi-g'arbidan oqib o'tuvchi Chortoqsoy uzoq geologik o'tmishda sersuv bo'lib, oqim yo'nalishini o'zgartirib, kuchli eroziya ishlarini bajargan va o'z yotqizig'ini Yorqo'rg'on, Yorkatay, Fayziobod, Jiydakapa, Daxiyaota qishloq hududlariga yotqizgan. Xullas, Uychi tumani hududidagi yerlar geologik jihatdan birmuncha yosh bo'lib, uning Norin daryosi qirg'og'idagi joylarni tosh va shag'al prolyuvial, shimolga tomon esa allyuvial, dellyuvial yotqiziqlar qoplab yotadi.

Tuman hududining Namangan-Uchqo'rg'on avtomobil yo'lidan 2-3 km. Janubidagi yerlar, ayniqsa Jiydakapa qishloq fuqarolar yig'ini hududidagi Guliston, Bobur, Ulug'bek dehqon-fermer xo'jaliklaridagi ko'pgina joylar geologik jihatdan juda yosh bo'lib, hatto XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarigacha ko'l va botqoqliklardan iborat edi. XX asrning 20-30 yillarida boshlangan ulkan gidromeleorativ ishlar (ariq va zovurlar qazish, yer osti suvlarni sathini pasaytirish va yangi yerkarni o'zlashtirish) bu yerkarni qishloq xo'jalik yerlariga yaroqli ekin maydonlariga aylanishiga olib keladi. Tumanning Guliston, Bobur, Ulug'bek nomli dehqon-fermer uyushmalaridagi yerlar 5-6 balli, qolgan hududlar esa 6-7 balli seysmiq mintaqalarda joylashgan. Tuman hududining relefi birmuncha parchalangan bo'lib, uning yerkarni janubi-g'arbdan, shimoli-sharqqa tomon ko'tarilib boradi. Yer ustining relef shakllariga ko'ra quyidagi geomorfologik mintaqalarga ajratiladi.

Xulosa o'rnida shuni ma'lum qilamizkii Yerlarimiz unmdor bo'lsa, ularda mo'l hosil yetishtirilsa, shu yerkarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensiv rivojlantirilsa, bu qishloq ho'jaligi xom ashyosiga qayta ishlash uchun "Chet el sarmoyalari" ham kelaveradi. Shuning uchun tuman hududidagi xo'jaliklar tekislik va adir zonasiga xos bo'lgan bo'z tuproq, och tusli bo'z tuproq va shurtab tuproqlar tarqalgan. Unimdar bo'z tuproqlar uchun chirindi miqdorini qalinligi va ko'pligi, mayin jinslar qatlaming 50-70 sm qalinlikda ekanligi va tuproq eroziyasini kuchli emasligi xarakterli hisoblansa, och tusli bo'z tuproqlarda chirinda qatlamini yupqaligi, chirindi miqdorini kamligi, tuproqning skletik darajasi yuqoriligi, karbonatlar va

jinslarning yuqori qatlamida joylashganligi, suv o'tkazuvchanlik va suvgaga chidamlilik darajasi, tuproq eroziyasiga moyilligi bilan ajralib turadi. Bu hudud esa iqlimi, relefi va tuproqlarining o'ziga xos xususiyatlari tabiiy o'simliklarni tarqalishga ta'sir qiladi. Hududda 40-50 yillar oldin o'sgan dorivor shifobaxsh o'simliklar juda kam uchraydi. Chunki adir mintaqasini 60-70 yillarda kuchli o'zlashtirilishi ko'plab o'simlik turlarini yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonlarni amalga oshirgan o'zimiz ekanligimizni unutmasligimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
2. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rghanishning o'rghanishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.
3. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. *Экономика и социум*, (8 (87)), 42-45.
4. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtaida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
5. qizi Kamolova, A. O. (2023). SINFDAN TASHQARI SPORT MASHG 'ULOTLARI ORQALI O 'QUVCHILARDA MILLIY G 'URUR, QADRYATLAR, UMUM INSONIY XIS TUYG 'ULARNI RIVOJLANTIRISH. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(8), 60-66.
6. Xalimjanovna, A. M. (2022). MANIFESTATIONS OF STRESS IN PROFESSIONAL ACTIVITY AND WAYS TO ELIMINATE IT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 841-844.
7. АСРАНБАЕВА, М. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум, 43-45
8. Asranbaeva, M. X. (2020). IMPROVING MECHANISMS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL LIFE IN DISABLED FAMILIES. *Theoretical & Applied Science*, (12), 125-129.
9. Bannayev, M. S. (2021). O'zbekistonda maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etish imkoniyati va muammolari. *Science and Education*, 2(7), 293–297.

10. 14. Bannayev, M. S. (2021). O 'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O 'RGATISHDA MEDIA TA'LIMNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI. Интернаука, (26), 93-94.
11. qizi Kamolova, A. O. (2023). SINFDAN TASHQARI SPORT MASHG 'ULOTLARI ORQALI O 'QUVCHILARDA MILLIY G 'URUR, QADRYATLAR, UMUM INSONIY XIS TUYG 'ULARNI RIVOJLANTIRISH. Results of National Scientific Research International Journal, 2(8), 60-66.
12. Асрранбаева, М. Х. (2015). МЕТОДЫ И ПРИЁМЫ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ТРЕВОЖНЫМИ ДЕТЬМИ. In СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ТРАНСФОРМАЦИИ КОНЦЕПЦИЙ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ (pp. 43-47)
13. Asranbaeva, M. H. (2020). CHARACTERISTICS OF FORMING MOTIVES OF LABOUR ACTIVITIES IN AN INCOMPLETE FAMILY. Theoretical & Applied Science, (1), 121-123.